

**BOLA RIVOJLANISHIDA NUTQNING AHAMIYATI***Aslonova Feruza Saloxidinova**FarDu, o'qituvchi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada nutqning bolaning rivojlanishidagi ahamiyati ko'rsatib o'tilgan. Nutqni o'zlashtirish bolalar o'rtasidagi muloqotni va atrofdagi dunyoni tushunishning eng muhim vositasi ekanligi misollar asosida yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** nutq, muloqot, kuzatib borish, chizish, yopishtirish, modellashtirish, ishlov berish, aqliy rivojlanganlik.

**Аннотация.** В данной статье показано значение речи в развитии ребенка. На примерах объясняется, что овладение речью является важнейшим средством понимания общения детей с окружающим миром.

**Ключевые слова:** речь, общение, слежение, рисование, соединение, моделирование, обработка, интеллектуальное развитие.

**Annotation.** This article shows the importance of speech in a child's development. The fact that mastering speech is the most important means of understanding communication between children and the world around them is explained on the basis of examples.

**Key words:** speech, communication, tracking, drawing, connecting, modeling, processing, intellectual development.

Bola rivojlanishida nutq muhim ahamiyatga ega, uni o'zlashtirish bolalar o'rtasidagi muloqotning va atrofdagi dunyoni tushunishning eng muhim vositasidir. Kattalar bolalar nutqining sofliqiga, so'zlardan to'g'ri foydalanishga va jummalarni tuzishga rioya qilishlari kerak.

Bundan tashqari, qo'llarning rivojlanishini kuzatib borish, ya'ni chizish, yopishtirish, modellashtirish va boshqalarda darslarni o'tkazish juda muhimdir. Maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanishi turli xil o'yin va faoliyatlarda, o'quv va ijodiy jarayonida nomoyon bo'ladi. Agar bola xatti-harakatlarning asosiy qoidalarini, narsalarga ishlov berishni va kattalar bilan muloqot qilishni o'rgangan bo'lsa, bola maktabgacha bolalik davridan foyda ko'rgan deb taxmin qilishimiz mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanganlik va moslashuvchanlik ta'limi.

Aqliy rivojlanish bu – tarbiyachilarning bolaning aqliy qobiliyatlari va tafakkurini rivojlantirishda, uning aqliy harakatlari va bilim qobiliyatlarini shakllantirishdagi maqsadli harakati.

Bolaning aqliy rivojlanishi uning manfaatlarining boyligidan, uning hissiyotlaridan va uning ruhiy qiyofasini yaratadigan barcha boshqa xususiyatlardan ajratgan holda tahlil qilish hech qanday samara bermaydi.

Ma\_lumki, yosh avlod tarbiyasi barcha zamonlarda ham o'z muhimligi va dolzarbligini yo'qotmagan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham jiddiy masala sifatida kata ahamiyat kasb etmoqda.

—Tarbiya qanchalik mukammal bo'lsa, xalq shu qadar baxtli yashaydi, deydi donishmandlar.

Yuqoridagi fikrlarga diqqatimizni qaratgan holda bolaning maktabgacha yosh o'sish davri alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bu davrda insonga xos eng muhim sifatlar, xarakter xislati, atrof-muhitga, o'zgalarga munosabat, xulq-atvor, tafakkur va ong kabi psixik aks ettirishning turli ko'rinishlari shakllanadi. Bularning barchasi qarama-qarshiliklar kurashi ostida tarkib topadi.

Bir yoshli bolaning harakatli o'yinlar jarayonida topshiriqni uddalay olmasligi, ko'zlagan ishini bajarishidagi noqulay vaziyatlar uning psixikasida dastlabki affektiv holatni vujudga keltiradi. Shuningdek, o'z faoliyatida uchraydigan ko'ngilsiz voqealarga shaxsiy munosabatini bildirish, aks ettirishning yangi shakli ta'sirlanishni tarkib toptiradi. G'azablanish, jahl, qahr-u g'azab tuyg'ularining xususiyatini tadqiq qilgan T.E. Konnikova ma'lumotlariga binoan, bir yoshli bolada ko'pincha bezovtalanish, xatti-harakatdagi «portlash», qahri qattqlik yuzaga keladi. Uning fikricha, bola psixikasida paydo bo'layotgan xulq natijasi tirishqoqlikning o'ziga xos ko'rinishidan iborat bo'lib, u o'zi yoqtirgan narsani tezroq qo'lga olish xohishi bilan uzviy bog'liqdir.

Uch yoshli bolalarga to'g'ri tarbiya berish, ta'sir o'tkazish, ularning harakatlarini maqsadga muvofiq yo'naltirish orqali ularda mustaqil holda ovqatlanish, kiyinish, yuvinish, o'z o'rnini yig'ishtirish ko'nikmalarini tarkib toptirishga, ayrim topshiriq va vazifalarni puxta bajarish malakasini shakllantirishga erishish mumkin.

Kattalar bolaga topshiriq beradilar-u, lekin uning natijasi bilan qiziqmaydilar, bola qanday yutuqqa erishganiga e'tibor bermaydilar. Bola o'ziga kattalarning mensimay, hurmatsizlik bilan munosabatda bo'layotganini darrov sezadi. Shaxslararo munosabatda vujudga kelgan anglashilmovchilik va ginaxonlik ana shu holatga oqilona baho berilgunicha davom etadi. Bunday holatlarning davomiyligi bolalarning qiziqishlarini susayishga olib keladi.

Bola rivojlanib borar ekan yangi psixik sifatlarini va xulq-atvor ko'rinishlarini o'zlashtiradi. Shu tariqa u shaxsga, jamiyatning kichik bir a'zosi aylanadi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bola butunlay shakllanib ulgurmagani va keyinchalik kamol topishga qodir bo'lgan shaxs hisoblanadi, lekin bunga qaramay bolada nisbatan barqaror ichki dunyo shakllanadi-ki, u bolani ilk bora shaxs deb atashga asos bo'la oladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Masharipova M.I. Maktabgacha tarbiya muassasalari sharoitida bolalarning harakat potentsialini maqsadli rivojlantirish texnologiyasi: Ped. fan. nom. ...diss. avtoref. – Toshkent, 2006.
2. Oila pedagogikasi /O.Hasanboevaning umumiy tahriri ostida. – T.: Aloqachi, 2007. – 384 b.
3. Qodirova F.R. Toshpo'latova Sh.Q. va boshqalar. Maktabgacha pedagogika. Darslik. Toshkent-2019.
4. G'oziev E. Muomala psixologiyasi. Toshkent, 2001.

5. Sodikova SH. Maktabgacha pedagogika (Darslik)(To‘ldirilgan qayta nashr) . — T., 2017.
6. Nazirova M.G. Maktabgacha ta‘lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni takomillashtirish: ped. fan. b. fals. dok. (PhD) ...diss. avtoref.–Toshkent, 2019. – B.18-20.
7. Nurkeldieva M. Maktabgacha va korreksion pedagogika (ma‘ruza matnlari). – T.: TDPU, 2013. 7-bet.
8. Rasulova M.SH. Bolalarni maktabga tayyorlash va tayyorligini aniqlash mezonlari. – T.: O\_zPFITI, 1994.